

Togʻ-kon sanoati va geologiya vazirining
2025-yil 08 -sentabrda 111-son
buyrugʻiga Ilova

Oʻzbekiston Respublikasi Togʻ-kon sanoati va geologiya vazirligining Hisob siyosati

Oʻzbekiston Respublikasining Budget kodeksi hamda Oʻzbekiston Respublikasi budget hisobining standarti (*1-sonli BHS*) “Hisob siyosati”ga (*roʻyxat raqami 2853, 2016-yil 27-dekabr*) muvofiq ishlab chiqilgan Oʻzbekiston Respublikasi Togʻ-kon sanoati va geologiya vazirligining (*keyingi oʻrinlarda – Kon geologiya vazirligi*) Hisob siyosati budget hisobini normativ tartibga solish tizimining elementi hisoblanadi.

Umumiy qoidalar

Mazkur Hisob siyosatida quyidagi asosiy tushunchalar qoʻllaniladi:

budget hisobi – budget tizimi budgetlarini ijro etishda hisobga olinadigan, pulda ifodalangan aktivlar va majburiyatlarning, shuningdek mazkur aktivlar va majburiyatlarni oʻzgartiruvchi operatsiyalarning holati toʻgʻrisidagi axborotni toʻplash, roʻyxatdan oʻtkazish va umumlashtirishning tartibga solingan tizimi;

hisob siyosati – mazkur Hisob siyosatida belgilangan prinsiplarga muvofiq budget tashkilotlari tomonidan budget hisobini yuritish va moliyaviy hisobotlarni tuzishda qoʻllaniladigan aniq uslublar, asoslar, yoʻl qoʻyishlar, qoidalar hamda usullar majmui.

Mazkur Hisob siyosatining maqsadi hisob siyosatini tanlash va oʻzgartirishlar kiritish mezonlarini, shuningdek Kon geologiya vazirligi tomonidan budget hisobini va moliyaviy hisobotni tuzish, hisob siyosatidagi oʻzgarishlar toʻgʻrisidagi axborotni ochib berish tartibini belgilab berishdan iborat.

Mazkur Standart Kon geologiya vazirligining moliyaviy hisobotlariga boʻlgan ishonchlilik darajasini va maʼlum bir davriylikdagi moliyaviy hisobotlarini, shuningdek tizim tashkilotlarining moliyaviy hisobotlarini oʻzaro solishtirish darajasini oshirishga moʻljallangan.

Ikkiyoqlama yozuv usulida hisob yuritish

Ikkiyoqlama yozuv usulida hisob yuritish prinsipi tashkilot buxgalteriyasi barcha xoʻjalik operatsiyalarini hisob registrlarida roʻyxatga olishni ikkiyoqlama yozuv tizimi asosida amalga oshirishini bildiradi.

Ikkiyoqlama yozuv tizimi bir xoʻjalik operatsiyasi boʻyicha bir summaning budget hisobining ikki schyotida — birining debetida va ikkinchisining kreditida aks ettirilishini nazarda tutadi.

Uzluksizlik

Uzluksizlik prinsipi tashkilotning hisobini yuritish muddati, tashkilotning faoliyati davriga muvofiq bo'lishini, ya'ni hisob yozuvlari yuritish, tashkilotning tashkil etilishidan to tugatilguniga qadar amalga oshirilishini bildiradi. Tashkilot o'z faoliyatini tugatgan kundan boshlab budget hisobini yuritishni to'xtatadi.

Uzluksizlik prinsipiga asoslanib tayyorlangan moliyaviy hisobot tashkilotning doimiy faoliyat yuritishini va noma'lum uzoq muddat davomida o'z faoliyatini davom ettirishini bildiradi.

Xo'jalik operatsiyalari, holatlar, aktivlar va passivlarga pul bilan baho berish

Barcha xo'jalik operatsiyalari, holatlar, aktivlar va passivlar yagona, bir xil birlikda o'lchanishi — pul bilan baholanishi lozim. O'zbekiston Respublikasida pul o'lchov birligi — so'm va uning yuzdan bir ulushi tiyin hisoblanadi.

Ishonchlilik

Axborotda jiddiy xatolar yoki g'arazlilik bo'lmasa va foydalanuvchilar unga tayanishlari mumkin bo'lsa, u ishonchli hisoblanadi.

Operatsiyalar va holatlarning ishonchliligi birlamchi hisob hujjatlari bilan tasdiqlanadi va har bir hisob yozuvi haqiqatda amalga oshirilgan xo'jalik operatsiyalarini tasdiqlovchi birlamchi hisob hujjatlariga asoslangan bo'lishi kerak.

Hisoblash

Hisoblash prinsipiga muvofiq aktivlar, passivlar, daromadlar va xarajatlar, tashkilot tomonidan amalga oshirilgan xo'jalik operatsiyalari va holatlar budget hisobida bu harakatlar yuzasidan pul mablag'lari yoki ekvivalentlari olingan yoxud to'langan paytda emas, balki shu harakatlar sodir etilgan (*yoki haqiqatda olingan*) paytda aks ettirilishi lozim.

Oldindan ko'ra bilish (*ehtiyotkorlik*)

Oldindan ko'ra bilish (*ehtiyotkorlik*) prinsipi moliyaviy hisobotda aktivlar va daromadlarni oshirib baholashga hamda majburiyatlar yoki xarajatlarni kamaytirib baholashga yo'l qo'yilmasligini nazarda tutadi.

Bu prinsipning qo'llanishi yashirin zaxiralarni barpo etishga yoki ta'minotni oshirib ko'rsatishga, aktivlar yoki daromadlarni, majburiyatlar va xarajatlarni ataylab kamaytirishga va oshirib ko'rsatishga yo'l qo'ymaydi.

Mazmunning shakldan ustunligi

Mazkur prinsip agar hisob hujjatlari va moliyaviy hisobotlardagi axborot operatsiya va holatlarning mazmunini ishonchli aks ettirsa, mazkur axborot moliyaviy hisobotda hisobga olinishi va ko'rsatilishi lozimligini anglatadi.

Ko'rsatkichlarning qiyosiyliigi

Moliyaviy axborot foydali va mazmunli bo'lishi uchun u turli hisobot davrlaridagi axborotlar bilan qiyoslanadigan bo'lishi lozim. Tashkilot tomonidan moliyaviy hisobot tayyorlashda foydalanilgan hisob siyosatidan, mazkur siyosatdagi barcha o'zgarishlardan va shunday o'zgarishlarning natijalaridan xabardor bo'lishlari kerak.

Moliyaviy hisobotdagi betaraflik

Moliyaviy hisobotda taqdim etilayotgan axborot ishonchli bo'lishini ta'minlash uchun xolisona bo'lishi lozim.

Hisobot davridagi daromadlar va xarajatlarning muvofiqligi

Hisobot davridagi daromadlar va xarajatlarning muvofiqligi mazkur hisobot davridagi xarajatlarni amalga oshirishni ta'minlagan mazkur davrdagi daromadlarnigina aks ettirilishini anglatadi.

Aktivlar va majburiyatlarni haqiqiy baholash

Aktivlar va majburiyatlarni haqiqiy baholash prinsipi tashkilot uchun baholashda aktivning qiymati asos bo'lishini nazarda tutadi.

Vazirlik buxgalteriya xizmati tashkiliy tuzilmasi

Kon geologiya vazirligi rahbariyati buxgalteriya hisobini tashkil etish, uni to'liq va aniq yuritish, moliyaviy-xo'jalik operatsiyalarini nazorat qilish, hisob-kitoblarni o'z vaqtida amalga oshirishni, shuningdek buxgalteriya hujjatlarining saqlanishi ta'minlaydi.

Kon geologiya vaziri va bosh buxgalter tashkilotda moliyaviy hisobotni hisobga olish va to'g'ri tayyorlash ustidan tizimli nazoratni amalga oshiradi.

Kon geologiya vaziri bosh buxgalterga buxgalteriyaga oid qonun hujjatlarida nazarda tutilgan o'z majburiyatlarini bajarishi hamda huquqlaridan foydalanishida yordam berish majburiyatini oladi.

Bosh buxgalterga o'z majburiyatlarini bajargani hamda o'z huquqlaridan foydalangani uchun buxgalteriyaga oid qonun hujjatlariga muvofiq tazyiq o'tkazish qat'iyan taqiqlanadi.

Bosh buxgalterga uning hisob va hisobot bo'yicha to'g'ridan-to'g'ri vazifalarini bajarish bilan bog'liq bo'lmagan topshiriqlarni berish mumkin emas.

Shuningdek, bosh buxgalterga pul mablag‘lari va moddiy qimmatliklar uchun bevosita moddiy javobgarlik bilan bog‘liq bo‘lgan vazifalarni yuklash mumkin emas. Unga banklar va boshqa tashkilotlardan bevosita pul mablag‘larini olish taqiqlanadi.

Bosh buxgalterning pul mablag‘lari, tovar-moddiy va boshqa qimmatliklarni qabul qilish, saqlash va sarflash bo‘yicha qonunchilikka zid bo‘lgan operatsiyalar bilan bog‘liq hujjatlarni ijroga qabul qilishi hamda rasmiylashtirishi taqiqlanadi.

Pul, tovar-moddiy va boshqa boyliklarni qabul qilish va berish uchun asos bo‘lib xizmat qiladigan hujjatlar, shuningdek xarajatlar smetasi ijrosiga taalluqli barcha hujjatlar hamda moliyaviy hisobotlar Kon geologiya vaziri yoki uning o‘rinbosari va bosh buxgalteri yoki uning o‘rinbosari tomonidan imzolanadi.

Bosh buxgalter yoki uning o‘rinbosari tomonidan imzolanmagan boshlang‘ich hisob hujjatlari ijro uchun yaroqsiz hisoblanadi va ijroga qabul qilinmaydi.

Kon geologiya vazirligi qonunchilikda belgilangan tartibda va muddatlarda davriy moliyaviy hisobotlarni tuzadi va moliya organiga topshiradi.

Kon geologiya vazirligi buxgalteriya hisobini tashkil qilishni hamda yuritishni ushbu Hisob siyosati va O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining boshqa normativ- huquqiy hujjatlari talablariga qat’iy amal qilgan holda avtomatlashtirilgan holda tashkil qilishlari mumkin.

Kon geologiya vazirligi buxgalteriya hisobi operatsiyalarini “UzASBO” dasturiy majmuasida yuritadi.

Kon geologiya vazirligining budjetdan tashqari jamg‘armasining vaqtincha bo‘sh turgan mablag‘larini qonunchilikda belgilangan tartibda tijorat banklarining depozitlariga joylashtirilishi mumkin.

Kon geologiya vazirligi buxgalteriya xizmati “Buxgalteriya to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 11-moddasi hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 25-yanvardagi “Respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatini samarali yo‘lga qo‘yishga doir birinchi navbatdagi tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 14-son Farmoniga muvofiq vazirlik va idoralar rahbarlari tomonidan markaziy apparat va tizim tashkilotlari tashkiliy tuzilmalarini tasdiqlash vakolati berilgan.

Shunga muvofiq Kon geologiya vaziri tomonidan tasdiqlangan markaziy apparat tashkiliy tuzilmasiga muvofiq Kon geologiya vaziri va vazir o‘rinbosarlari bo‘ysunuvidagi “Buxgalteriya hisobi va bo‘limi” hisoblanib, buxgalteriya xizmati tarkibida Bosh hisobchi va 2 shtat birligidan iborat bosh mutaxassislardan iborat.

Inventarizatsiya o‘tkazishning tartibi va muddatlari (*inventarizatsiya qilish majburiy bo‘lgan hollardan tashqari*)

Vazirlikda:

asosiy vositalar inventarizatsiyasi – O‘zbekiston Respublikasi budjet hisobining standarti (8-sonli BHS) “Ko‘chmas mulk, bino va jihozlar” (ro‘yxat raqami 3144, 2019-yil 20-mart) hamda O‘zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobining milliy standarti (19-sonli BHMS) “Inventarizatsiyani tashkil etish va o‘tkazish”ga (ro‘yxat raqami 3548, 2024-yil 12-avgust) asosan;

tovar-moddiy zaxiralar inventarizatsiyasi – O‘zbekiston Respublikasi budget hisobining standarti (7-sonli BHS) “Tovar-moddiy zaxiralar”ga (ro‘yxat raqami 3120, 2019-yil 14-yanvar) asosan;

nomoddiy aktivlar inventarizatsiyasi – O‘zbekiston Respublikasi budget hisobining standarti (9-sonli BHS) “Nomoddiy aktivlar”ga (ro‘yxat raqami 3169, 2019-yil 24-iyun) asosan;

Boshqa turdagi aktivlar inventarizatsiyasi – O‘zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobining milliy standarti (19-sonli BHMS) “Inventarizatsiyani tashkil etish va o‘tkazish”ga (ro‘yxat raqami 3548, 2024-yil 12-avgust) asosan amalga oshiriladi.

Inventarizatsiyaning asosiy maqsadi:

mol-mulkning haqiqatda mavjudligini aniqlash;

haqiqatda mavjud mol-mulkni buxgalteriya hisobi ma’lumotlari bilan solishtirish;

buxgalteriya hisobida to‘g‘ri aks ettirilganligini tekshirish.

Quyidagi hollarda inventarizatsiyadan o‘tkazish majburiy hisoblanadi:

mol-mulk ijaraga berilganda, sotib olinganda, sotilganda, shuningdek qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda davlat korxonasini o‘zgartirishda (*davlat tasarrufidan chiqarilganda*);

yillik moliyaviy hisobotni tuzish oldidan, bundan hisobot yilining 1-oktabridan keyin inventarizatsiyadan o‘tkazilgan mol-mulk mustasno.

Tovar-moddiy zaxiralar bir yilda kamida bir marta inventarizatsiyadan o‘tkaziladi.

Asosiy vositalar ikki yilda kamida bir marta, kutubxona fondlari esa besh yilda bir marta inventarizatsiyadan o‘tkaziladi.

Pul mablag‘lari, pul hujjatlari, qiymatliklari va qat’iy hisobdagi blanklari oyda bir marta, yonilg‘i-moylash materiallari va oziq-ovqat mahsulotlari har chorakda, qimmatbaho metallar qonunchilik hujjatlarida belgilangan muddatlarda inventarizatsiyadan o‘tkaziladi.

Ishlab chiqarish zaxiralari quyidagi hollarda inventarizatsiyadan o‘tkaziladi:

- asosiy vositalar va tovar-moddiy zaxiralar qayta baholanganda;

- moddiy javobgar shaxslar almashganda (*ishlarni qabul qilish — topshirish kunida*);

- o‘g‘irlik yoki suiiste’mol qilish, shuningdek qiymatliklarni buzilishi faktlari aniqlanganda;

- tabiiy ofatlar, yong‘inlar, falokatlar yoki g‘ayritabiiy sharoitlar yuzaga keltirgan boshqa favqulodda vaziyatlar yuz berganda;

- tashkilot tugatilganda (*qayta tashkil etilganda*) tugatish (*ajratish*) balansini tuzish oldidan va qonunchilik hujjatlarda nazarda tutilgan boshqa hollarda.

Umumiy (*jamoaviy*) moddiy javobgarlik sharoitida jamoa rahbari o‘zgarganda, jamoadan uning ellik foizdan ortiq a’zolari chiqib ketganda, shuningdek jamoaning bitta yoki bir nechta a’zolari talabi bilan inventarizatsiya o‘tkaziladi.

Inventarizatsiyani o‘tkazish uchun tashkilotlarda quyidagi tarkibda doimiy ishlaydigan inventarizatsiya komissiyalari tuziladi:

tashkilot rahbari yoki uning o‘rinbosari (*komissiya raisi*);

buxgalteriya hisobi xizmati rahbari yoki buxgalteriya xizmati mutaxassisi;
ichki audit xizmati xodimi;
mutaxassislar (*tovarshunos, muhandis, texnolog, mexanik, ish yurituvchi, iqtisodchi va boshqalar*);
axborot texnologiyalari bo'yicha mutaxassis;
korruptsiyaga qarshi kurashish bo'limi xodimi;
yuridik bo'limi xodimi.

Inventarizatsiyani o'tkazishda inventarizatsiya komissiyasining a'zosi (*a'zolari*) ishtirok etmasa, mazkur holat inventarizatsiya natijalarini haqiqiy emas deb topish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Komissiya quyidagi holatlar uchun javobgar bo'ladi:

tashkilot rahbarining buyrug'iga muvofiq inventarizatsiyani o'z vaqtida o'tkazish va uni o'tkazish tartibiga rioya qilish;

tekshirilayotgan asosiy vositalar, tovar-moddiy zaxiralar, pul mablag'lari va to'lov vositalarining haqiqatdagi qoldiqlari to'g'risidagi ma'lumotlarni ro'yxatga to'liq va aniq qayd etish;

tovar-moddiy zaxiralarning ular narxi belgilanadigan farqlovchi belgilarini (*turi, navi, rusumi, hajmi, preyskurant bo'yicha tartib raqami, artikuli va boshqalar*) ro'yxatda to'g'ri ko'rsatish;

belgilangan tartibga muvofiq inventarizatsiya materiallarini to'g'ri va o'z vaqtida rasmiylashtirish.

Inventarizatsiya paytida qiymatliklarning mavjudligi majburiy sanash, tarozida tortish, o'lchash yo'li bilan aniqlanadi.

Tashkilot tomonidan foydalaniladigan va unda sintetik va analitik schyotlar ro'yxati bo'lishi lozim bo'lgan ishchi schyotlar rejasi. Mazkur ma'lumot hisob siyosatiga ilova tarzida taqdim etiladi.

Kon geologiya vazirligi Iqtisodiyot va moliya vazirining O'zbekiston Respublikasi budget hisobining standarti (*2-sonli BHS*) "Yagona schyotlar rejasi"ni tasdiqlash to'g'risidagi buyrug'i (*ro'yxat raqami 3078, 2018-yil 20-oktyabr*)ga hamda "Budget tashkilotlarida buxgalteriya hisobi to'g'risidagi Yo'riqnoma"ga (*ro'yxat raqami 2169, 2010-yil 22-dekabr*) muvofiq buxgalteriya hisobining schyotlar rejasiga asosan yuritadi.

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi bilan kelishilmagan holda schyotlar rejasini o'zgartirilishiga yoki schyotlar rejasida keltirilmagan schyotlarni yoki subschyotlarni qo'llagan holda buxgalteriya hisobining yuritilishi taqiqlanadi (*sintetik va analitik schyotlar rejasi ilova qilinadi*).

Hujjatlar aylanmasi grafigi

Kon geologiya vazirligi Buxgalteriyasida hujjatlar aylanishi O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirining 2024-yil 14-iyundagi 143-son buyrug'i bilan tasdiqlangan "Buxgalteriya hisobida hujjatlar va hujjatlar aylanishi to'g'risidagi Nizom" (*ro'yxat raqami 3538, 2024-yil 30-iyul*) bilan tartibga solinadi.

Birlamchi hisob hujjatlariga imzo qo'yish huquqiga ega bo'lgan shaxslar ro'yxatini

O'zbekiston Respublikasining "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonunining 13-moddasiga muvofiq:

Pul, tovar-moddiy boyliklarni va boshqa boyliklarni qabul qilish hamda berish uchun asos bo'lib xizmat qiladigan hujjatlar, kredit va hisob-kitob majburiyatlari, shuningdek moliyaviy va boshqa hisobotlar buxgalteriya hisobi subyektining rahbari tomonidan yoki u belgilaydigan shaxslar tomonidan imzolanadi.

Buxgalteriya hisobi subyektining rahbari imzolash huquqiga ega bo'lgan shaxslarning ikkita ro'yxatini tasdiqlaydi. Birinchi ro'yxatga buxgalteriya hisobi subyektida rahbarlik vazifalarini amalga oshiruvchi shaxslar, ikkinchisiga esa, buxgalteriya hisobi va moliyaviy boshqarish vazifalarini amalga oshiruvchi shaxslar kiradi. Agar buxgalteriya hisobi subyektining rahbari buxgalteriya hisobi va moliyaviy boshqarish vazifalarini o'z zimmasiga olgan bo'lsa, u holda har ikkala ro'yxatda ham o'zini ko'rsatadi.

Ko'rsatilgan shaxslarning imzosi mavjud bo'lmagan hujjatlar haqiqiy emas deb hisoblanadi.

Kon geologiya vazirligida birinchi imzo huquqi quyidagilarga tegishli:
Tashkilot rahbari;

yoki rahbar tomonidan imzo qo'yish huquqi berilgan shaxslar.

Ikkinchi imzo huquqi quyidagilarga tegishli:

bosh hisobchi;

yoki buxgalteriya hisob va bo'limi boshlig'i vazifalarini amalga oshirish yuklatilgan shaxs.

№	Lavozimi	Ism, familiyasi
1	Vazir	Islamov Bobur Farxadovich
2	Vazir o'rinbosari	Yusupov Rustam Payzramonovich
3	Bosh hisobchi	Xaybulin Timur Rashidovich
4	Bosh mutaxassis	Kotischeva Lyubov Nikolaevna
5	Yuridik bo'lim boshlig'i	Nurkuziev Aliakbar Gaybullaevich

Hisob ma'lumotlarini qayta ishlash usullarini (qo'lda yoki dasturiy ta'minotni qo'llash orqali).

Kon geologiya vazirligi buxgalteriyasida hisob ma'lumotlarini qayta ishlash ishlari qo'lda, "UZASBO" dasturiy majmuasi hamda boshqa dasturiy ta'minotlarni qo'llash kabi usullari foydalanadi.

Namunaviy shakllari nazarda tutilmagan, xo'jalik operatsiyalarini qayd qilish uchun qo'llaniladigan birlamchi hisob hujjatlarining shakllarini

Kon geologiya vazirligi buxgalteriyasida amaldagi buxgalteriya hisobining namunaviy shakllari nazarda tutilmagan holatlar bo'yicha birlamchi vujudga

kelganda, xo‘jalik operatsiyalarini qayd qilish uchun qo‘llaniladigan birlamchi hisob hujjatlarining shakllarini Budjet tashkilotlarida buxgalteriya hisob to‘g‘risidagi qonunchilik doirasida yangi shakllardagi birlamchi hisob hujjatlari yaratgan xolda ish yuritishi mumkin.

Asosiy vositalarning inventar raqami tuzilmasi

Tashkilotda buxgalteriya hisob to‘g‘risidagi yo‘riqnomaga (*ro‘yxat raqami 2169, 2010-yil 22-dekabr*) muvofiq:

Asosiy vositalarning butligi ustidan nazoratni yo‘lga qo‘yish va ularning hisobini tashkil etish uchun har bir obyekt (*predmet*)ga, kutubxona fondlaridan tashqari, o‘n to‘rt belgidan iborat inventar raqami beriladi.

Bunda, dastlabki olti belgi subschyotni bildiradi, yettinchi va sakkizinchi belgi — asosiy vositalar yillik eskirish me‘yorlarining guruhlari va kichik guruhlari tartib raqamini, qolgan olti belgi esa, predmetning guruhdagi tartib raqamini bildiradi. Bunda, guruhning kichik guruhi mavjud bo‘lmaganda “Nol” bilan belgilanadi.

Masalan, 221 110 11 000001 — inventar raqamida 221 110 — “Turarjoy imoratlar” subschyotini, 11 — asosiy vositalar yillik eskirish me‘yorlarining guruhlari va kichik guruhlari tartib raqami, 000 001 — obyektning tartib raqamini bildiradi; 221 221 50 000001 — inventar raqamida 221 221 — “Informatsion, kompyuter va telekommunikatsion jihozlar” subschyotini, 50 — asosiy vositalar yillik eskirish me‘yorlarining guruhlari va kichik guruhlari tartib raqami, 000 001 — predmetning tartib raqamini bildiradi.

Oldingi xisobot (*yillarida*) davrda “UzASBO” dasturiy majmuasiga kiritilgan asosiy vositalarning inventar raqamlari mos ravishda “UzASBO-2” dasturiy majmuasiga to‘g‘ridan to‘g‘ri ko‘chirilishi (*avtomatik tarzda*) ko‘chiriladi, ya‘ni dastlabki sakkiz belgi subschyotlari, yettinchi va sakkizinchi belgi — asosiy vositalar yillik eskirish me‘yorlarining guruhlari va kichik guruhlari tartib raqamlarida o‘rin almashish holatlari vujudga kelgan taqdirda bu holatlar o‘zgarishsiz qoldiriladi hamda shu holicha Kon geologiya vazirligi balansidan chiqarildi.

Asosiy vositalarni qayta baholash uslublari

Vazirlikda asosiy vositalarni qayta baholash qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilgan qayta baholash indeksleri asosida amalga oshiriladi.

Bundan tashqari, doimiy ishlaydigan inventarizatsiya komissiyasining asosiy vositalarni qayta baholash zarurati bo‘yicha xulosasiga asosan, mustaqil baholovchilar tomonidan joriy bozor qiymatlarini inobatga olgan holda amalga oshirilishi mumkin.

Qayta baholashning asosiy maqsadi asosiy vositalarning bozor qiymatini hisobga olgan holda ularning hisobi to‘g‘ri yuritilishini ta‘minlashdan iborat.

Asosiy vositalarni qayta baholashda quyidagilar inobatga olinishi lozim: qonunchilik tomonidan belgilangan mezonlar;

asosiy vositalarning joriy bozor qiymati;

asosiy vositalarning turkumlari bo'yicha qayta baholash.

Mustaqil baholovchilarning qayta baholash hujjatlari doimiy ishlaydigan inventarizatsiya komissiyasining tegishli xulosasiga asosan buxgalteriyada Budget hisobining standartlari talablari asosida aks ettiriladi.

Belgilangan muddatlarda o'tkaziladigan inventarizatsiya yakuni bo'yicha doimiy ishlaydigan inventarizatsiya komissiyasining asosiy vositalarni qayta baholash zarurati bo'yicha xulosasi olinishi lozim.

Inventarizatsiya qilishda (*ortiqcha yoki kamomadda*) mulkni baholash uslublari

Agarda aniqlangan kamomad o'rniga moddiy javobgar shaxsning tashkilot ixtiyoriga bergan tovar-moddiy zaxiralarining qiymati kamomad chiqqan tovar-moddiy zaxiralar qiymatiga teng yoki kam bo'lsa, ushbu tovar-moddiy zaxiralar belgilangan tartibda bozor qiymatida kirim qilinadi, yetishmaydigan qismi esa, moddiy javobgar shaxs tomonidan pul mablag'larini kiritish bilan qoplanadi va buxgalteriya hisobida mazkur Yo'riqnomada belgilangan tartibda aks ettiriladi.

O'lchash dalolatnomalari bilan yonilg'ining belgilangan sarflash me'yorlari taqqoslanganda kamomad chiqsa, tashkilot rahbari ortiqcha sarflash sababini aniqlash tadbirlarini, tegishli hollarda esa, aybdor shaxslardan undirish choralarini ko'radi;

Ortiqcha (*hisobga olinmagan*) tovar-moddiy zaxiralarni inventarlash natijasida aniqlangan aktivlar tannarxi ular aniqlangan sanadagi joriy qiymatdan kelib chiqqan holda belgilanadi.

Inventarizatsiya natijasida ortiqcha chiqqan pul mablag'lari (*pul ekvivalentlaridan tashqari*) tegishli budget daromadiga o'tkazib beriladi va hisobda pul mablag'lari belgilangan tartibda kirim qilinishi uchun Yagona schyotlar rejasining tegishli subschyotlari orqali buxgalteriya o'tkazmalari amalga oshiriladi.

Quyi turuvchi tasarrufidagi tashkilotlarning hisobot taqdim etish muddatlari

Kon geologiya vazirligi tizim tashkilotlari choraklik va budget yillik hisobotlarni O'zbekiston Respublikasi budget hisobining standarti (*3-sonli BHS*) "Budget hisoboti" bo'yicha tuzadi va taqdim etadi.

Kon geologiya vazirligi va tizim tashkilotlari va hududiy boshqarmalar jamlanma moliyaviy hisobotlarni 3-sonli BHSga muvofiq belgilangan tartibda Iqtisodiyot va moliya vazirligiga va hududiy boshqarmalar hududiy iqtisodiyot va moliya organlariga taqdim etadilar.

Moliyaviy hisobotlar "UzASBO" dasturiy majmuasida elektron raqamli imzodan foydalangan holda shaklda tegishliligi bo'yicha Iqtisodiyot va moliya vazirligiga, hududiy iqtisodiyot va moliya organlariga elektron tarzda taqdim qilinadi.

Bunda:

Sintetik va analitik subschyotlardagi buxgalteriya yozuvlarining to'g'riligini nazorat qilish uchun tegishli analitik subschyotlarning har bir guruhi bo'yicha aylanma qaydnomalar (*M-44-son shakldagi material zaxiralar bo'yicha aylanma qaydnoma*, *285-son shakldagi aylanma qaydnoma* va *326-son shakldagi asosiy vositalar bo'yicha aylanma qaydnoma*) tuziladi. Aylanmalar jami va aylanma qaydnomalardagi har bir analitik subschyot qoldiqlari 308-son shakl "Bosh-jurnal kitobi"dagi mazkur subschyotlarning qoldiqlari va aylanmalari jami bilan har oy yakuni bo'yicha taqqoslanadi.

Aylanma qaydnomalar har oyda, asosiy vositalar bo'yicha esa, har chorakda tuziladi. 326-son shakldagi aylanma qaydnomadagi yozuvlar kerak bo'lgan hollarda bir necha yillar davomida olib borilishi ham mumkin.

Yangi hisobot yilida sintetik va analitik hisob registrlarida yil boshiga qoldiq summolari o'tgan yilgi yakunlovchi balansga va tegishli hisob registrlariga to'la mos ravishda yoziladi.

Agar yillik hisobot moliya organi yoki yuqori tashkilot tomonidan qabul qilinayotganda yakunlovchi balansda tuzatishlar qilingan bo'lsa, moliya organi yoki yuqori tashkilotning tegishli yozma ko'rsatmasiga asosan bu tuzatishlar o'tgan yilgi hisob registrlariga ham, joriy yil registrlariga ham (*kirim qoldiqlarini o'zgartirish yo'li bilan*) kiritib qo'yiladi.

Har bir hisobot oyi tugagandan keyin barcha memorial orderlar, memorial order – jamlanma qaydnomalar ularga tegishli hujjatlar bilan birga raqamiga qarab tartib bilan taxlanishi va kitob qilinadi. Hujjatlar uncha ko'p bo'lmagan taqdirda, ularning uch oyligini bitta qilib kitob qilish mumkin. Muqovasiga tashkilotning nomi, kitobning nomi va tartib raqami, hisobot davri – yil va oy, memorial orderning boshlang'ich va oxirgi raqami, kitobdagi varaqlar soni yozib qo'yiladi.

Kon geologiya vazirligidan boshlang'ich hisob hujjatlari, hisob registrlari, moliyaviy hisobotlar faqatgina qonunchilikda belgilangan tartibda tegishli organlar tomonidan olinishi mumkin.

Tovar (*ish, xizmat*)lar kalkulyatsiyasini shakllantirish tartibini.

Kon geologiya vazirligida tovar (*ish, xizmat*)lar bilan bog'lik faoliyatlar shug'illanish holatlari vujudga kelgan taqdirda budjet qonunchiligiga asosan tovar (*ish, xizmat*)lar kalkulyatsiyasini shakllantirish tartibini ishlab chiqadi.

Ma'lumot uchun: Maxsulotlar (ishlar xizmatlar) tannarxini shakllantirish va hisobga olishda tashkilot mahsulot (ishlar, xizmatlar) sotish ishlab chiqarish xarajatlari tarkibi va moliyaviy natijalarni ishlab chiqarish tartibi to'g'risidagi Nizomga (ro'yxat raqami 54, 1999-yil 5-fevral) muvofiq qabul qilinadi.

Ko'rsatilayotgan xizmatlar narxini hisoblash oddiy usul yordamida amalga oshiriladi. Ushbu usuldan foydalangan holda hisobot davridagi barcha ishlab chiqarish xarajatalri ko'rsatilgan xizmatlar narxiga hisoblanadi. Ko'rsatilgan xizmatlarning narxi ishlab chiqarish xarajatlari miqdorini ishlab chiqarilgan xizmatlar birliklarining umumiy soniga bo'lish yo'li bilan hisoblanadi ("Tovar moddiy zaxiralar" 7-son BHSga muvofiq (ro'yxat raqami 3120. 2019-yil 14-yanvar') Tashkilotning to'g'ridan-to'g'ri ishlab chiqarish xarajatlari – bu xizmatni

ko'rsatishga bevosita bog'liq xarajatlar, masalan, ishlab chiqarish moddiy xarajatlari, asosiy ishlab chiqarish ishchilarining mehnat xarajatlari, ishlab chiqarish bilan bog'liq ijtimoiy soliq. Ushbu xarajatlar o'zgaruvchan, chunki ularning xajmi to'g'ridan-to'g'ri ishlab chiqarish xajmining o'zgarishiga bog'liq.

Xodimlar mehnatiga haq to'lash

Kon geologiya vazirligi xodimlari mehnatiga haq to'lash Kon geologiya vazirligi xodimlarini moddiy rag'batlantirish tartibi to'g'risidagi Nizom, Jamoa shartnomasi, ichki lokal hujjatlar hamda qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa normativ-hujjatlarga muvofiq amalga oshiriladi.

Soliqlar, yig'imlar va majburiy ajratmalar hisobi

O'zbekiston Respublikasi davlat budjetiga va davlat maqsadli jamg'armalariga soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni saqlash, hisoblash va to'lash O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksiga muvofiq amalga oshiriladi.

Hisoblash metodiga muvofiq Kon geologiya vazirligi soliq xarajatlari soliq to'lash paytidan qat'i nazar, ular paydo bo'lgan davrda qayd etiladi, shu bilan bog'liq soliqlar, yig'imlar, majburiy ajratmalar summolari har oyda hisoblab chiqariladi.

Hisob siyosatidagi o'zgarishlarni hisobga olish

Hisob siyosati rahbar yoki uning o'rinbosarining buyrug'i yoki qarori bilan tasdiqlanadi va yildan-yilga izchil qo'llaniladi.

Budjet hisobini tartibga soluvchi qonunchilik hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilgan hollarda, shuningdek Kon geologiya vazirligi qayta tashkil etilganda hisob siyosatiga o'zgartirishlar kiritilishi mumkin.

Budjet hisobi ma'lumotlarini solishtirishni ta'minlash maqsadida hisob siyosatiga o'zgartirish va qo'shimchalar moliya yili boshidan, agar Kon geologiya vazirligi qayta tashkil etilayotgan bo'lsa uni qayta tashkil etilgan sanadan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilishi lozim.

Kon geologiya vazirligi yillik moliyaviy hisobotga tushuntirish xatida kelgusi moliya yili uchun hisob siyosatidagi o'zgartirish va qo'shimchalar haqida ma'lumot beradi.

Hisob siyosati moliyaviy hisobotni barcha qo'llanilayotgan budjet hisobi standartlari asosida shakllantirilishini ta'minlaydi.

Moliyaviy hisobot o'ziga xos talablar bo'lmaganida:

ahamiyatga ega bo'lishi — ma'lumot undan foydalanuvchilarning ehtiyojlarini qondirishi;

ishonchli bo'lishi — Kon geologiya vazirligi faoliyatining barcha natijalari va moliyaviy holatini xolisona ko'rsatishi, hodisalar va operatsiyalarning iqtisodiy mohiyatini aks ettirishi;

xolis (*beg'araz*) bo'lishi va majburiy bo'lmashligi; to'la (tugallangan) bo'lishi — budjet tashkiloti xo'jalik faoliyatining barcha faktlarini to'la aks ettirishi lozim.

Hisob siyosatini buzganlik uchun javobgarlik

Hisob siyosatini buzishda aybdor bo'lgan shaxslar belgilangan tartibda javobgar bo'ladilar.

Yakunlovchi qoidalar

Mazkur Hisob siyosati Kon geologiya vaziri yoki u vakolat bergan shaxsning buyrug'i bilan tasdiqlanganidan so'ng kuchga kiradi.

**O'zbekiston Respublikasi Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligi tomonidan
foydalaniladigan ishchi schyotlar ro'yxati**

Schyotlar rejasi		Schyotlar nomi
Bo‘lim	Kichik bo‘lim	
1-bob. Joriy aktivlar		
100	000	Joriy aktivlar
102	000	Budjet tizimi budjetlarining va boshqa budjetdan tashqari jamg‘armalarning mablag‘lari
102	400	Budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari mablag‘lari
102	401	Budjet tashkilotlarining rivojlantirish jamg‘armasi
102	404	Budjet tashkilotlarining budjetga o‘tkazilishi lozim bo‘lgan (o‘tgan yilning debitor qarzdorligini, kamomadlarni, tekshiruv natijasiga ko‘ra aniqlangan o‘zlashtirishlarni) mablag‘lari
102	410	Vazirliklar va idoralarning ajratmalar hisobiga shakllanadigan budjetdan tashqari jamg‘armalari
102	414	Taqsimlanadigan mablag‘lar
102	416	Boshqa depozitlar
102	418	Grantlar, insonparvarlik yordami va texnik ko‘maklashish vositalari bo‘yicha ajratilgan mablag‘lar
102	419	Kreditlar
105	000	Budjet tizimi budjetlarining va boshqa budjetdan tashqari jamg‘armalarning xorijiy valyutadagi mablag‘lari
105	300	Budjet tashkilotlarining xorijiy valyutadagi budjetdan tashqari mablag‘lari
109	000	Naqd pul mablag‘lari
109	100	Milliy valyutadagi naqd pul mablag‘lari
109	200	Xorijiy valyutadagi naqd pul mablag‘lari
110	000	Boshqa pul mablag‘lari
111	000	Yo‘ldagi pul mablag‘lari
111	100	Budjet hisobidan naqd pul olish uchun tranzit hisobvaraqlariga o‘tkazilgan mablag‘lar
111	300	Budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari mablag‘lari hisobidan naqd pul olish uchun tranzit hisobvaraqlariga o‘tkazilgan mablag‘lar
111	301	Budjet tashkilotlarini rivojlantirish jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan naqd pul olish uchun tranzit hisobvaraqlarga o‘tkazilgan mablag‘lar

Schyotlar rejasi		Schyotlar nomi
Bo'lim	Kichik bo'lim	
111	310	Ajratmalar hisobiga shakllanadigan vazirlik va idoralarning budjetdan tashqari jamg'armalari hisobidan naqd pul olish uchun tranzit hisobvaraqlariga o'tkazilgan mablag'lar
111	320	Grantlar, insonparvarlik yordami va texnik ko'maklashish vositalari bo'yicha ajratilgan mablag'lar hisobidan naqd pul olish uchun tranzit hisobvaraqlariga o'tkazilgan mablag'lar
111	321	Kredit mablag'lari hisobidan naqd pul olish uchun tranzit hisobvaraqlariga o'tkazilgan mablag'lar
111	400	Konvertatsiya uchun tranzit hisob raqamiga o'tkazib berilgan mablag'lar
111	500	Hisob-kitob kliring palatasiga o'tkazilgan mablag'lar
111	900	Yo'ldagi boshqa mablag'lar
112	000	Akkreditivlar
113	000	Pul ekvivalentlari
120	000	Moliyaviy mablag'lar bo'yicha joriy debitor qarzlari
121	000	Qisqa muddatli depozitlar
121	100	Qisqa muddatli ichki depozitlar
121	200	Qisqa muddatli tashqi depozitlar
140	000	Budjet tizimi budjetlarining va boshqa budjetdan tashqari jamg'armalarning daromadlari bo'yicha debitor qarzlari
146	000	O'tgan yilgi debitorlik qarzдорliklar, kamomadlar, tekshiruv natijasiga ko'ra to'lovlar bo'yicha daromadlarning debitor qarzlari
150	000	Budjet tashkilotlarining debitor qarzlari
151	000	Budjet tashkilotlarining turli hisob-kitoblar bo'yicha debitor qarzlari
151	100	Budjet tashkilotlarining mahsulot yetkazib beruvchilar va pudratchilar bilan hisob-kitoblar bo'yicha debitor qarzlari
151	200	Budjet tashkilotlarining xaridor va buyurtmachilar bilan hisob-kitoblar bo'yicha debitor qarzlari
151	300	Budjet tashkilotlarining sug'urta bo'yicha to'lovlaridan debitor qarzlari
151	900	Budjet tashkilotlarining boshqa turdagi hisob-kitoblardan debitor qarzlari
152	000	Budjet tashkilotlarining budjet va budjetdan tashqari jamg'armalar bilan debitor qarzlari
152	100	Budjet tashkilotlarining budjetga to'lovlar bo'yicha budjet bilan debitor qarzlari
152	200	Budjet tashkilotlarining ijtimoiy soliq bo'yicha debitor qarzlari
152	300	Budjet tashkilotlarining shaxsiy jamg'arib boriladigan Pensiya hisobvarag'i badallari bo'yicha debitor qarzlari
153	000	Budjet tashkilotlarining xodimlar va stipendiya oluvchilar bilan debitor qarzlari
153	100	Budjet tashkilotlarining kamomadlarga doir debitor qarzlari

Schyotlar rejasi		Schyotlar nomi
Bo'lim	Kichik bo'lim	
153	200	Budjet tashkilotlarining xodimlar bilan ijtimoiy nafaqalar bo'yicha debitor qarzlari
153	300	Budjet tashkilotlarining hisobdor shaxslar bilan debitor qarzlari
153	400	Budjet tashkilotlarining xodimlar bilan mehnatga haq to'lash bo'yicha debitor qarzlari
154	000	Budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari mablag'lari hisobidan debitor qarzlari
160	000	Tovar-moddiy zaxiralar
161	000	Xom ashyo va materiallar
161	100	Oziq-ovqat mahsulotlari
161	110	Joriy oziq-ovqat mahsulotlari
161	300	Yonilg'i, yoqilg'i-moylash materiallari
161	310	Yoqilg'i neft mahsulotlari
161	400	Xo'jalik va kanselyariya mahsulotlari
161	410	Xo'jalik mahsulotlari
161	420	Kanselyariya mahsulotlari (qog'ozdan tashqari)
161	430	Qog'oz
161	500	Kiyim-kechak, poyabzal va choyshab-g'iloflar
161	510	Kiyim-kechak va poyabzallar
161	520	Choyshab-g'iloflar
161	600	Qurilish materiallari
161	700	Mashina va asbob-uskunalarining ehtiyot qismlari, butlovchi buyumlar va sotib olinadigan yarim tayyor mahsulotlar
161	900	Boshqa xom ashyo va materiallar
162	000	Tugallanmagan ishlab chiqarish
163	000	Tayyor mahsulot
164	000	Qayta sotish uchun tovarlar
165	000	Harbiy zaxiralar
170	000	Tovar-moddiy zaxiralarga xarajatlar
180	000	Tovarlarga (ishlarga, xizmatlarga) xarajatlar
2-bob. Uzoq muddatli aktivlar		
210	000	Moliyaviy mablag'lar bo'yicha uzoq muddatli debitor qarzlari
211	000	Uzoq muddatli depozitlar
211	100	Uzoq muddatli ichki depozitlar
211	200	Uzoq muddatli tashqi depozitlar
216	000	Budjet tashkilotlari tomonidan xodimlarga berilgan ssudalar
220	000	Nomoliyaviy aktivlar
221	000	Asosiy vositalar
221	100	Bino va inshootlar

Schyotlar rejasi		Schyotlar nomi
Bo'lim	Kichik bo'lim	
221	110	Turarjoy binolari
221	120	Noturarjoy binolari
221	130	Boshqa inshootlar
221	140	Yerni obodonlashtirish
221	200	Mashina va jihozlar
221	210	Transport vositalari
221	220	Mashina va jihozlar (transport vositalaridan tashqari)
221	221	Informatsion, kompyuter va telekommunikatsion jihozlar
221	222	Boshqa turdagi mashina va jihozlar
221	300	Boshqa turdagi asosiy vositalar
221	310	Yetishtiriladigan biologik aktivlar
221	312	Ko'p yillik daraxtlar va o'simlik resurslari
221	320	Intellectual mulk obyektlari
221	321	Tadqiqot va ishlanmalar
221	322	Foydali qazilmalarni qazib olish
221	323	Kompyuter dasturiy ta'minoti
221	324	Ma'lumotlar bazasi
221	325	Ko'ngilochar, badiiy va ijodiy qiymatliklar
221	326	Boshqa turdagi intellectual mulk obyektlari
221	330	Kutubxona fondi
221	331	Darsliklar fondi
221	332	Badiiy kitoblar fondi
221	339	Boshqa turdagi kutubxona fondi
221	400	Harbiy asosiy vositalar
222	000	Qiymatliklar
223	000	Noishlab chiqarish aktivlari
223	100	Yer
223	200	Mineral va energiya resurslari
223	300	Boshqa turdagi tabiiy aktivlar
223	310	Nomahsuldor biologik aktivlar
223	320	Suv resurslari
223	330	Boshqa turdagi tabiiy resurslar
223	331	Radiochastota spektri
223	332	Boshqa tabiiy resurslar
223	400	Nomoddiy noishlab chiqarish aktivlari
223	410	Shartnoma, lizing va litsenziyalar
223	411	Tijoriy operativ lizing
223	412	Tabiiy resurslardan foydalanishga ruxsatnoma

Schyotlar rejasi		Schyotlar nomi
Bo'lim	Kichik bo'lim	
223	413	Ma'lum turdagi faoliyatni amalga oshirish uchun ruxsatnoma
223	414	Kelgusi tovar va xizmatlarga imtiyozli egalik qilishga ruxsatnoma
223	420	Gudvill va marketing aktivlari
230	000	Nomoliyaviy aktivlar amortizatsiyasi
231	000	Asosiy vositalar amortizatsiyasi
231	100	Bino va inshootlar amortizatsiyasi
231	110	Turarjoy binolari amortizatsiyasi
231	120	Noturarjoy binolari amortizatsiyasi
231	130	Boshqa inshootlar amortizatsiyasi
231	140	Yerni obodonlashtirish amortizatsiyasi
231	200	Mashina va jihozlar amortizatsiyasi
231	210	Transport vositalari amortizatsiyasi
231	220	Mashina va jihozlar (transport vositalaridan tashqari) amortizatsiyasi
231	221	Informatsion, kompyuter va telekommunikatsion jihozlar amortizatsiyasi
